Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 13 043,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 6,1 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 111,8 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 5,4 % ga yetdi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida Farg‘ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot






YAHM o‘sish sur’ati

YAHM hajmi

YAHM deflyator indeksi

YAIMga qo‘shgan hissasi

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2023- yil*** | ***2024- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **10 991,1** | **13 043,9** | **106,1** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 10 634,9 | 12 712,2 | 106,1 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 356,2 | 331,7 | 106,6 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **10 634,9** | **12 712,2** | **106,1** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **2 034,8** | **2 250,8** | **104,0** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **3 082,3** | **3 764,4** | **107,9** |
| sanoat | 2 354,5 | 2 938,5 | 108,1 |
| qurilish | 727,8 | 825,9 | 107,5 |
| **xizmatlar** | **5 517,8** | **6 697,0** | **105,9** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 113,3 | 1 318,4 | 109,2 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 875,2 | 1 056,3 | 108,5 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 3 529,3 | 4 322,3 | 104,2 |

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 204,5 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 3,9 % ga yuqoridir.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi

*(ming so‘mda)*

2 757,8 — 2023- yil

3 204,5 — 2024- yil

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*

2023- yil — 100,4 %

2024 yil — 103,9 %

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2023- yil* | *2024- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 96,8 | 97,5 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 3,2 | 2,5 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **19,1** | **17,7** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **28,9** | **29,6** |
| sanoat | 22,1 | 23,1 |
| qurilish | 6,8 | 6,5 |
| **xizmatlar** | **52,0** | **52,7** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 10,5 | 10,4 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 8,2 | 8,3 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 33,3 | 34,0 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2024- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 17,7 % ni, sanoat tarmog‘i 23,1 % ni, qurilish 6,5 % ni va xizmatlar sohasi 52,7 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*







Yalpi qo‘shilgan qiymat    Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,7 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,5 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – salbiy 0,2 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 2,9 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 1,7 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,1 f.p.)ga ko‘paydi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi
*(jamiga nisbatan % da)*



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 17,7 %), sanoatda – 108,1 % (23,1 %), qurilishda – 107,5 % (6,5 %), xizmatlar sohasida – 105,9 % ni (52,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 109,2 % (10,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,5 % (8,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,2 % dan (34,0 %) iborat bo‘ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| 2023- y. | | 2024- y. |
|---|---|---|
| 2,5 % | YAHM | 6,1 % |
| 3,5 % | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 4,0 % |
| 1,1 % | Sanoat | 8,1 % |
| -2,9 % | Qurilish | 7,5 % |
| 3,7 % | Xizmatlar | 5,9 % |

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 111,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoatda– 115,5 % va xizmatlar sohasida – 114,6 % qayd etildi..

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2023- y. | 2024- y. |
|---|---|---|
| YAHM | 108,0 % | 111,8 % |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 114,4 % | 106,4 % |
| Sanoat | 98,2 % | 115,5 % |
| Qurilish | 104,5 % | 105,6 % |
| Xizmatlar | 112,9 % | 114,6 % |

2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 8 129,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 6 621,8 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 64,0 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 62,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko‘payishi bilan bog‘liq.

**Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**
*(jamiga nisbatan %da)*



| | Hajmi, mlrd.so‘m | Ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2023- yil | 6 621,8 | 62,3 % |
| 2024- yil | 8 129,6 | 64,0 % |

